



23.12.2022 даги

" NUKUSELECTROAPPARAT " ва Шофиркон туман тиббиёт бирлашма ўртасида 405000000,00 сўм умумий
суммага тузилган 23/22 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 054
Шахсий газна хисобварақ 100022860062587073101054008

2022 й. ойлари номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда Жами
	4354990			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь	405 000 000,00			405 000 000,00
Жами йил бўйича	405 000 000,00			405 000 000,00

Жами 405000000,00 сўм

Тўрт юз беш миллион сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 121500000,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
30%***2022 йил декабр ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан газначилик бўлинмасига икки нусхада
тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойнага _____% жорий ойнинг _____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши
лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар
кўрсатиш, алоқа хизматлари ва конун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар)
етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



(имзо) Хўжамқулов Самандар Раҳмонқулович
Ф И Ш

Буюртмачи босқун ҳужжатлари

(имзо) Юсупов Юнус Исроилович
Ф И Ш

Газначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

« _____ » 20 _____ й.

« _____ » 20 _____ й.

“23” Dekabr 2022 yil

Shofirkon shahri

Shofirkon tuman Tibbiyot birlashmasi kelgusi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb atalib Nizomga asosan Bosh vrachi S.R.Xujamkulov bir tomondan «NUKUSELECTROAPPARAT» MChJ shaklidagi Qo'shma korxonasi keyingi o'rinlarda «Bajaruvchi» deb atalib hamda Nizom asosida ish yurituvchi nomidan Bosh direktori Ibraimov M M ikkinchi tomondan Shofirkon TTBga karashli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga 5kvt, Navoiy qishloq oilvaiy poliklinikasiga 5kvt, Chandir qishloq oilvaiy poliklinikasiga 5kvt, J.Sattorov qishloq oilvaiy poliklinikasiga 5kvt, Q.Mirarab qishloq vrachlik punktiga 3kvt va Iskogoriy qishloq vrachlik punkti 3kvtlik quyosh elektrstansiyasi olish, o'rnatish va ishga tushurish ishlarini sifatli va o'z muddatida bajarish ishlari bo'yicha shartnoma tuzdilar:

1. ShARTNOMA PREDMETI.

1.1. Ushbu shartnoma buyicha **“Pudratchi”** “Buyurtmachi” ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan Shofirkon TTBga karashli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasiga 5kvt, Navoiy qishloq oilvaiy poliklinikasiga 5kvt, Chandir qishloq oilvaiy poliklinikasiga 5kvt, J.Sattorov qishloq oilvaiy poliklinikasiga 5kvt, Q.Mirarab qishloq vrachlik punktiga 3kvt va Iskogoriy qishloq vrachlik punkti 3kvtlik quyosh elektrstansiyasi olish, o'rnatish va ishga tushurish ishlarini sifatli va o'z muddatida bajarish, “Buyurtmachi” esa “Pudratchi” tomonidan loyiha smeta bo'yicha bajargan ishlarni dalolatnoma asosida qabul qilib olishni hamda to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 405 000 000 (**To'rt yuzi besh million**) so'm so'mni tashkil etadi.

2. ShARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR.

2.1. «Buyurtmachi» tomonidan taqdim» qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati QQS bilan 405 000 000 (**To'rt yuzi besh million**) so'm so'mni tashkil qiladi.

2.2. Bajariladigan ishlarining boshlanishi **«23» dekabr 2022 yil.**

2.3. Bajariladigan ishlarining tugashi vaqti **«31» dekabr 2022 yil.**

3. TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHlash , BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA ShARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avansni “Pudratchi” olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3. “Buyurtmachi” tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4. Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

4. TO'LOV ShARTI VA TARTIBI

4.1. Shartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan - 405 000 000 (turt yuz besh million) so'mni tashkil etadi.

4.2. **“Buyurtmachi” to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.**

4.3. “Pudrat” tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnoma imzolangandan so'ng shartnoma bahosining 30 % miqdorida bo'nak (avans) to'lovini amalga oshiradi.

o'shirilmaydi.

5. PUDRATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. Shartnoma bahosi QQS bilan 405 000 000 (**To'rt yuzi besh million**) so'm bo'lgan ta'mirlash ishlarini shartnomaning 2.3 bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish va o'z vaqtida sifatli qilib topshirish.

5.2. Pudratchi maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Buyurtmachini pudrat shartnomasi tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash;

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun xaqni shartnomaning 4.1 bandiga asosan kelishilgan vaqtda va miqdorda to'lanishini talab qilish huquqiga ega.

6. BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1 "Buyurtmachi" "Pudratchi" dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi.

6.3 ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash.

6.4. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganda "Buyurtmachi" xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'risida 3 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

7. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI.

7.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon, ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20

foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI.

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

8.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

9. FORS-MAJOR HOLATLARI.

9.1 Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmaz kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmaz kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

9.3 O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmaz kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

10. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI.

10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6- bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan qonuniy kuchga kiradi hamda **2022-yil 31-dekabr gacha amalda bo'ladi.**

11.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib har biri bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saqlanadi.

11. TOMONLARNING MANZILLI YA HISOB RAQAMLARI

«ISH BAJARUVCHI»

«BUYURTMACHI»

«NUKUSELEKTROAPPARAT»

MChJ

Manzil: NUKUS SH TAXIATASH
KOCHA №2

Tel. 61 221 80

H/r 2021 4000 2007 1939 3001

Bank nomi: «KAPITAL» bank

MFO 01038 INN 304598527

OKONX 27120 OKED

Shofirkon tuman Tibbiyot birlashmasi

Manzil: Shofirkon tuman Navruz
115 uy

tel. 502-33-03

H/r: 100022860062047073101054008

INN 201113399 OKONX 91511

Olot tumani bo'yicha G'aznachilik

H/r: 21402100000100001010

Markaziy bank Toshkent shahri MFO

0011122919



[Handwritten signature]
(Muxr. Ibragimov)

Ibragimov.M



S.R. Xujamkulov

(Muxr.)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

HK3147883166

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **NUKUSELEKTROAPPARAT**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: SHOFIRKON TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI tomonidan 23.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Shofirkon tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



A.S.NUSRATOV

23.12.2022